



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIIYAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	



INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI



Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi

Toshkentdagi Puchon Universiteti
"Ta'lim menejmenti"
Magistratura 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Pulatova Moxira Baxtiyorovna

Toshkentdagi Puchon Universiteti
"Ta'lim menejmenti"
Magistratura bo'limi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni samarali bartaraf etish yo'llari yoritilgan. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimida kuzatilayotgan moliyaviy cheklovlar hamda umumiy inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi dolzarb masalalar tahlil qilingan. Asosiy masalalar qatoriga byudjet mablag'larining yetarli darajada ajratilmasligi, maxsus jihozlar va infratuzilmani yanada takomillashtirish zarurati, malakali kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha ehtiyojlar hamda inklyuziv ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga keng jalb qilish masalalari kiradi. Shu bilan birga, maqolada mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va istiqbolli yechimlarni joriy etish bo'yicha takliflar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, moliyaviy masalalar, byudjet, kadrlar salohiyati, ta'lim imkoniyati.

Abstract. This article discusses the main approaches to effectively addressing financial challenges in supporting inclusive education. It analyzes the financial constraints observed in the inclusive education system of Uzbekistan, along with the key developmental issues within inclusive education in general. The highlighted aspects include the need for more sufficient budget allocations, further improvement of special equipment and infrastructure, enhancement of qualified personnel capacity, and broader inclusion of children requiring inclusive education. The article also provides recommendations aimed at optimizing available resources and implementing practical solutions.

Key words: inclusive education, financial issues, budget, personnel capacity, access to education.

Аннотация. В статье рассмотрены основные подходы к эффективному преодолению финансовых задач в поддержке инклюзивного образования. Проанализированы финансовые ограничения, наблюдаемые в системе инклюзивного образования Узбекистана, а также актуальные вопросы развития инклюзивного образования в целом. К ключевым аспектам относятся необходимость увеличения бюджетного финансирования, дальнейшее совершенствование специального оборудования и инфраструктуры, повышение квалификации кадров и расширение охвата детей, нуждающихся в инклюзивном обучении. В статье также представлены рекомендации по оптимальному использованию имеющихся ресурсов и внедрению практических решений.

Ключевые слова: инклюзивное образование, финансовые задачи, бюджет, кадровый потенциал, доступ к образованию.



KIRISH

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, har bir bolaga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim jarayoniga to'liq integratsiyalashuvini ta'minlash, maxsus pedagogik xizmatlarning samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish jahon miqyosida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning barqaror rivoji ta'lim tizimining sifati, pedagoglar malakasi, zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi va byudjet resurslaridan samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "har bir bola sifatli ta'lim olish huquqiga ega" tamoyili asosida umumta'lim maktablariga imkoniyati cheklangan o'quvchilarni bosqichma-bosqich jalb etish, maxsus pedagogik xizmatlarni kengaytirish, logoped, defektolog va tutorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat bo'yicha o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratish, pedagoglarning malakasini oshirish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy vosita va texnologiyalarni tatbiq etish yo'nalishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, infratuzilmani yanada takomillashtirish, pedagoglar malakasidagi hududiy tafovutlarni qisqartirish, zarur jihozlar bilan ta'minotni izchil kuchaytirish hamda inklyuziv ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish istiqboldagi muhim vazifalar sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasi inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat byudjeti bilan bir qatorda grantlar, homiylik dasturlari, nodavlat tashkilotlar ishtiroki, maxsus pedagogik dasturlarni moliyalashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirishga yo'naltirilgan resurslar samaradorligini namoyon etayotganini ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali inklyuziv ta'limning sifat ko'rsatkichlari va qamrovini yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning maqsadi — O'zbekistonda inklyuziv ta'limni moliyaviy ta'minlashning hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida milliy amaliyotni takomillashtirish yo'llarini ilmiy asosda yoritib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'limning milliy va xalqaro miqyosdagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy manbalar ushbu sohaning tashkiliy, normativ-huquqiy, pedagogik va moliyaviy jihatlarini har tomonlama yoritadi. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan asosiy me'yoriy hujjatlar — Prezidentning 2018-yil 25-martdagi Farmoni hamda "Umumta'lim maktablari to'g'risida"gi Qonun¹ — inklyuziv ta'limning huquqiy poydevorini mustahkamlab, imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'limga teng huquqli kirishini ta'minlashda muhim yo'nalish vazifasini bajaradi. Xalq ta'limi vazirligining 2022-yilgi statistik ma'lumotlarida inklyuziv o'quvchilar soni, infratuzilma rivoji, pedagoglar malakasi va hududlar bo'yicha holatga oid tahlillar keltirilib, amaliy jarayonning real rivojlanish dinamikasi aks ettirilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta'limning konseptual asoslari keng yoritilgan. Jumladan, IDEA (2004) hujjati nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonini davlat tomonidan moliyaviy, ijtimoiy va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tartibga soluvchi muhim normativ tizimlardan biri hisoblanadi. Florian va Black-Hawkins (2011) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar inkluziv pedagogikaning metodologik asoslarini shakllantirib, sinfda turli o'quv ehtiyojlarini qamrab olishning samarali usullarini taqdim etadi. Loreman, Deppeler va Harvey (2010) esa o'qituvchilar tayyorgarligi, sinf boshqaruvi va pedagogik moslashuvlarning inklyuziv ta'limdagi o'rnini chuqur izohlagan.

UNESCO (2020) tomonidan chop etilgan Global Monitoring Report inklyuziv ta'limni rivojlantirishda davlat investitsiyalari, resurslarni qayta taqsimlash, xalqaro grantlar va moliyaviy yordamlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, Shvetsiya va Kanada ta'lim vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy va moliyaviy yo'riqnomalarda inklyuziv ta'limni barqaror moliyalashtirish mexanizmlari — maxsus fondlar, subsidiya dasturlari, qo'shimcha pedagogik kadrlarni moliyalashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi tizimlar — amaliy misollar orqali yoritilgan. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham samarali qo'llanishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

Tomlinson (2014) tomonidan taklif etilgan differensial ta'lim yondashuvi inklyuziv muhitda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan pedagogik model bo'lib, xalqaro tajribada keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv o'qituvchilarning moslashuvchan, kompetent va ijodiy ishlashini qo'llab-quvvatlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.01.2018 yildagi PF-5313-son <https://lex.uz/ru/docs/-3523206?ONDATE=25.01.2018%2000>



Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlari, moliyaviy mexanizmlari va milliy-huquqiy zaminlarini kompleks yoritadi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda hududlar kesimida moliyalashtirish samaradorligi, xalqaro moliyaviy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va resurs taqsimoti mexanizmlarini yanada chuqur o'rganish zarurati qayd etilgan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilib, inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligini baholash hamda milliy amaliyotni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'llarini ilmiy asosda ko'rsatib berishni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini har tomonlama o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Xalq ta'limi vazirligining statistik ma'lumotlari hamda UNESCO va IDEA kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Bu yondashuv inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari va mavjud rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, taqqoslash usuli qo'llanilib, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni moliyalashtirish tizimi AQSh, Shvetsiya va Kanada kabi davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Solishtirish natijasida xalqaro amaliyotning O'zbekiston sharoitiga mos keladigan ijobiy jihatlari, takomillashtirish imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlar aniqlab berildi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli yordamida inklyuziv o'quvchilar soni, hududlar bo'yicha qamrov darajasi, infratuzilma holati, pedagog kadrlar salohiyati va resurs taqsimoti bo'yicha mavjud raqamlar umumlashtirildi. Ushbu tahlil inklyuziv ta'limning hozirgi rivojlanish dinamikasini obyektiv baholashga yordam berdi.

To'rtinchidan, tizimli tahlil yondashuvi asosida moliyaviy resurslar, pedagogik qo'llab-quvvatlash, infratuzilma, oilaviy hamkorlik va ta'lim muassasalari faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Bu yondashuv inklyuziv ta'limning kompleks tizim sifatida qanday ishlashini yaxlit ko'rinishda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida XTV statistik ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy manbalar asosida xulosalar shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar inklyuziv ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mavjud kuchli tomonlarini, rivojlanish imkoniyatlarini va takomillashtirishni talab qiladigan jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston inklyuziv ta'limi: holati, statistikasi, foizlar va xalqaro tajribalar bilan ilmiy tahlil”

Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati — har bir bolaning, jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ham umumta'lim maktablarida teng sharoitlarda ta'lim olishini ta'minlashdir. Bu tizimda barcha o'quvchilarning ehtiyojlari hisobga olinadi, maxsus pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmatlari yo'lga qo'yiladi va ta'lim jarayoni har tomonlama inklyuziv yondashuv asosida tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimi so'nggi yillarda izchil rivojlanib, qamrovning sezilarli kengayishi kuzatilmoqda. Inklyuziv sinf va maktablar sonining ortishi, o'quvchilarni bosqichma-bosqich umumta'lim jarayoniga jalb qilinishi hamda pedagogik infratuzilmaning modernizatsiyasi bu yo'nalishda samarali natijalar berayotganini ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadval 2020–2025-yillarda inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilar soni, inklyuziv sinf/maktablar miqyosi hamda qamrov darajasining bosqichma-bosqich oshib borayotganini ilmiy asosda aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. 2020–2025-yillarda inklyuziv ta'limga o'quvchilar qamrovi

Yil	Inklyuziv o'quvchilar soni	Inklyuziv sinf/maktablar soni	Qamrov darajasi (%)
2020/2021	65-70 nafar	25 ta maktab	0,8–1,6 %
2021/2022	76-85 nafar	31 ta maktab	-1.2 %
2022/2023	504 nafar	195 ta maktab	-7.8 %
2023/2024	1195 nafar	530 ta maktab	-18.0 %
2024/2025	1400 nafar	600-650 maktab	-20.7 %

Ushbu ko'rsatkichlar inklyuziv ta'limning hududlar bo'yicha rivojlanish sur'atlarini aks ettirib, ayrim hududlarda qo'shimcha pedagogik, infratuzilmaviy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Bu jarayon inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks siyosiy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarurligini anglatadi.



Shu bilan birga, ayrim maktablarda inklyuziv sinflar mavjud bo'lishiga qaramay, infratuzilmani yanada takomillashtirish ehtiyoji saqlanmoqda. Nogironlik aravachasidan foydalanuvchi bolalar uchun panduslar, maxsus moslashtirilgan mebellar, ko'rish yoki eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun zarur didaktik vositalarni kengaytirish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi rivojlanish kelgusida barcha o'quvchilarga teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar soni va ularning malakasi ham hududlar kesimida turlicha shakllangan. Ba'zi hududlarda logoped, defektolog va tutorlar yetarli bo'lsa, ayrim hududlarda bu mutaxassislarni tayyorlash va jalb qilish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. O'quvchi-o'qituvchi nisbati ham inklyuziv ta'limning samaradorligini belgilovchi muhim omil bo'lib, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan malaka oshirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining kengayib borishi ijobiy natijalar bermoqda.

2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalar belgilangan. Qarorda quyidagi masalalarni hal etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib berilgan:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay, to'siqsiz muhit yaratish imkoniyatlarini kengaytirish;
- zarur o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va kasbiy reabilitatsiya uchun mo'ljallangan jihozlar bilan ta'minotni yaxshilash;
- jamoatchilik o'rtasida inklyuziv ta'limning mohiyati va afzalliklarini keng targ'ib qilish;
- inklyuziv ta'limga bolalarni jalb etish jarayonida mahalliy ijro organlari ishtirokini kuchaytirish;
- oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlariga inklyuziv ta'lim metodikasi fanlarini bosqichma-bosqich kiritish;
- bo'lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida inklyuziv ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash imkoniyatlarini kengaytirish.

Mazkur vazifalar inklyuziv ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishga qaratilib, pedagogik, infratuzilmaviy va moliyaviy imkoniyatlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy ta'minot masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'larni yanada samarali boshqarish, grantlar va homiylik mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Maktablarni zarur jihozlar, texnik vositalar va malakali kadrlar bilan ta'minlashni kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, AQShda inklyuziv ta'lim 1975-yilda qabul qilingan "Education for All Handicapped Children Act" (hozirgi IDEA qonuni) orqali mustahkamlangan. Bugungi kunda barcha shtatlar imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablariga to'liq jalb qilinishini ta'minlaydi. Moliyalashtirish federal va shtat byudjeti orqali amalga oshirilib, har bir maktab:

- maxsus o'quv jihozlari,
- o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari,
- pedagogik assistentlar,
- individual o'quv dasturlari

uchun alohida mablag'larga ega bo'ladi. Umumiy ta'lim byudjetining taxminan 15–20 foizi inklyuziv ta'limga yo'naltirilishi amaliy samaradorlikni ta'minlab kelmoqda.

Kanada va Shvetsiyada inklyuziv ta'lim moliyaviy jihatdan keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanadi. Har bir o'quvchi uchun alohida qo'shimcha mablag' ajratilishi, maxsus jihozlar bilan ta'minlanish hamda shaxsiy yordamchilarning jalb qilinishi ushbu davlatlardagi inklyuziv ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirib kelmoqda. Shvetsiya ta'lim byudjetining 10–18 foizi inklyuziv ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilishi natijasida o'quvchilarning teng ta'lim olish imkoniyatlari yanada mustahkamlanmoqda.

Xuddi shunday, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston uchun inklyuziv ta'limni moliyaviy barqaror asosda rivojlantirishda samarali model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu davlatlarning moliyalashtirish mexanizmlari, resurslarni qayta taqsimlash amaliyotlari va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimlari O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlar sifatida qaraladi.

O'zbekistonda o'quvchilar sonining yildan-yilga ortib borayotgani tizimning izchil ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda moliyaviy imkoniyatlar va resurslar taqsimotidagi tafovutlar, jihozlar bilan ta'minot darajasining turlicha bo'lishi hamda pedagog kadrlar malakasini yanada oshirish zarurati mavjud. Bu masalalar inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuksaltirish uchun rivojlantirishni talab qiladigan yo'nalishlar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni moliyaviy jihatdan yanada mustahkam qo'llab-quvvatlash, hududlararo resurs tengligini ta'minlash va zamonaviy infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish dolzarb va istiqbolli vazifa sanaladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston inklyuziv ta'limi so'nggi yillarda izchil rivojlanib, qamrov ko'rsatkichi barqaror oshib bormoqda. Aholi zich joylashgan shahar hududlarida ushbu jarayon tez sur'atlarda kechayotgan bo'lsa-da, qishloq va chekka tumanlarda inklyuziv ta'limni yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, maktablarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va malakali pedagoglar sonini ko'paytirish orqali ushbu hududlarda ham sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Byudjet mablag'larini ko'paytirish, maxsus o'quv-texnik resurslarni xarid qilish, infratuzilmani moslashtirish va qo'shimcha pedagogik xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligi yanada kuchayadi. O'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish, defektolog, logoped va psixolog kabi mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash pedagogik jarayon sifatini mustahkamlaydi. Shuningdek, o'quvchi-ustoz nisbatining optimal darajada tashkil etilishi har bir bolaga individual yondashuv imkoniyatini yaratadi. Xalqaro tajribalarni o'rganish va o'qituvchilarni xorijiy malaka oshirish dasturlariga jalb etish inklyuziv ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etiladigan grantlar qishloq va chekka hududlarda teng ta'lim imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, xususiy sektor homiyligi, donor tashkilotlar va xalqaro fondlarning jalb qilinishi qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantirib, inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Individual moliyaviy paketlar tizimining yo'lga qo'yilishi esa maxsus ehtiyojga ega bolalarga zarur xizmatlar va moslashgan ta'lim sharoitlarini kafolatlaydi. Inklyuziv ta'limni moliyalashtirishni yanada takomillashtirish bo'yicha inklyuziv ehtiyojlarni moliyalashtirishni oshirish, infratuzilmani moslashtirish, maxsus o'quv materiallari va psixologik-pedagogik xizmatlarni rivojlantirish; pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kuchaytirish, maxsus pedagogika bo'yicha majburiy kurslarni joriy etish, defektolog va hamroh mutaxassislar sonini ko'paytirish; oilalarni qo'llab-quvvatlash, maslahat xizmatlarini kengaytirish va ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishini kuchaytirish; qishloq hududlarida inklyuziv sinflar sonini oshirish, mobil mutaxassislar faoliyatini yo'lga qo'yish; imkoniyati cheklangan bolalarni muntazam monitoring qilish va yagona reestr yuritish orqali moliyalashtirishni aniq ma'lumotlar asosida rejalashtirish; davlat-jamoat sherikchiligini kengaytirish va xalqaro donornlarni jalb etish; erta rivojlanish tizimiga inklyuziv yondashuvni integratsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish inklyuziv ta'limning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytiradi va har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini to'liq ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-martdagi "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. [1, 1–3] <https://lex.uz/ru/docs/-3523206?ONDATE=25.01.2018%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). *Inklyuziv ta'lim statistikasi va tahlili*. Toshkent. [2, 5–8]
3. U.S. Department of Education. (2004). *Individuals with Disabilities Education Act (IDEA)*. [3, 2–5]
4. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. *British Educational Research Journal*, 37(5), 813–828. [4, 10–15]
5. Loreman, T., Deppeler, J., & Harvey, D. (2010). *Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom*. Routledge. [5, 22–28]
6. UNESCO. (2020). *Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education*. Paris: UNESCO Publishing. [6, 45–50]
7. Shvetsiya Ta'lim Vazirligi. (2019). *Inclusive Education Policy and Funding*. Stokgolm. [7, 12–18]
8. Canadian Ministry of Education. (2021). *Inclusive Education Guidelines and Financial Support*. Ottawa. [8, 20–25]
9. Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners*. ASCD. [9, 30–35]
10. O'zbekiston Respublikasi "Umumta'lim maktablari to'g'risida" Qonuni. (2020). [10, 5–10] <https://lex.uz/docs/-5013007>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
